

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 81'373.231

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI NASRIY BAYONIDAGI TASVIR VOSITALARNING IFODALANISHI**ВЫРАЖЕНИЕ ИЗОБРАЖЕННЫХ СРЕДСТВ В ПРОЗОВСКОМ ИЗЛОЖЕНИИ ЭПОСА «ФАРХАД И ШИРИН»****EXPRESSION OF THE DESCRIPTIVE TERMS IN THE PROSE REPRESENTATION OF THE EPIC “FARKHAD AND SHIRIN”**

Fazildinova Sevara Nematovna 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy tasviriy vositalar va ularning nazariy asoslari haqida bayon etilgan bo'lib, ularni buyuk shoir Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida qo'llanilish ko'lami va badiiy tasviriy vositalarning turlaridan biri bo'lmish metafora uchun keltirilgan namunalarga sharhlar berilgan. Tadqiqotning maqsadi badiiy tasviriy vositalarning "Farhod va Shirin" dostonida qo'llanilish ko'lamini tadqiq etish. Tadqiqot metodi tahlil metodi bo'lib, dostonning nasriy bayonidagi tasviriy vositalarni aniqlab, ularni turlarga ajratildi: metafora, metonimiya, o'xshatish. Tadqiqot natijasi badiiy tasviriy vositalar ajratib olinib ularni tahlil qilindi. Ko'chimlar turlari aniqlanib, ishlatilishi, sinonimik hodisasi, omonimik hodisalar aniqlandi. Tasviriy vositalar nazariy jihatdan o'rganilib, asardagi namunalar ilmiy jihatdan tadqiq etildi.

Аннотация

В данной статье описываются художественные образные средства и их теоретические основы, сфера их использования в эпосе великого поэта Алишера Навои «Фархад и Ширин», а также комментируются примеры, приведенные для метафоры, одного из видов художественных образных средств. Цель исследования - изучить сферу использования художественных образных средств в эпосе «Фархад и Ширин». Методом исследования является метод анализа, выявляющий образные средства в прозаическом повествовании эпоса и разделяющий их на виды: метафора, метонимия, сравнение. В результате исследования были извлечены и проанализированы художественные образные средства. Выявлены виды миграций, определено их употребление, синонимика и омонимичные явления. Образные средства были теоретически изучены, а образцы в работе научно исследованы.

Abstract

This article describes artistic visual means and their theoretical foundations, the scope of their use in the epic of the great poet Alisher Navoi "Farhad and Shirin", and also comments on the examples given for metaphor, one of the types of artistic visual means. The purpose of the study is to study the scope of use of artistic visual means in the epic "Farkhod and Shirin". The research method is an analysis method that identifies visual means in the prose narrative of the epic and divides them into types: metaphor, metonymy, comparison. As a result of the study, artistic visual media were extracted and analyzed. The types of migrations are identified, their use, synonymy and homonymous phenomena are determined. Visual means were theoretically studied, and the samples in the work were scientifically studied.

Kalit so'zlar: badiiy tasvir vositalar, "Farhod va Shirin", obraz, metafora, metonimiya, o'xshatish, badiiy asar, kitobxon, personaj

Ключевые слова: средства художественного образа, «Фархад и Ширин», образ, метафора, метонимия, сравнение, художественная литература, читатель, характер.

Key words: artistic image tools, "Farkhod and Shirin", image, metaphor, metonymy, simile, fictional story, reader, character.

KIRISH

Badiiy tasviriy vositalar tilshunoslikning eng ko'p tadqiq etilgan va mulohazalarga boy bo'lgan mavzularidan biri ekanligi bizga ma'lum. Shunday ekan, badiiy tasviriy vositalarsiz badiiy adabiyot namunalarini tasavvur qilish albatta qiyin bo'ladi. Chunki badiiy asarning o'quvchi qalbidan joy olishida va uzoq vaqt xotirasida saqlanishida tasviriy vositalar muhim rol o'ynaydi. Badiiy tasvir vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyatini ifodalagan obrazlilik(tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bitta predmetni xususiyatini bildiruvchi

belgi boshqa biror predmetga ko'chishida o'xshashlik ya'ni so'zning nominativ ma'nosiga daxl qilmagan holda, ko'chma ma'noda ishlatilishi, oddiy, hech qanday leksik-stilistik bo'yoqdorliksiz bayon qilishdan ko'ra ancha kuchli ta'sir doirasiga ega bo'ladi. So'zlarni asliyatdagi ma'nosini emas, balki obrazlilik imkoniyatidan mohirona foydalanish badiiy-estetik maqsadni yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy tasviriy vositalar bo'yicha ko'plab tilshunos va adabiyotshunos olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar: B.To'xliyev, R.Qo'ng'urov, A.Yu.Boboniyozov, E.Qilichev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiev, N.Arutyunova, M.Blek, J.Lakoff, E.Kassirer, Ye.Gogonenkova va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida tasviriy vositalarning falsafiy-nazariy asoslari, mantiqiy tahlili, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlarini ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida qo'llanilgan tasviriy vositalarning ingliz tilidagi tarjimalari muammosi hamon tadqiq etilgani yo'q.

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlari tilining leksik-semantik, pragmatik, lingvokulturologik xususiyatlari muayyan darajada tadqiq etilgan. Buyuk alloma shoirming serqirra ijodini o'rganish o'sha davr hayotini o'rganishga, bizga ma'lum bo'lmagan jihatlarni ochilishiga imkon beradi. Shu o'rinda "Navoiyshunoslik" fanining asoschilaridan biri Shuhrat Sirojiddinovning Navoiy jodini o'rganish borasidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "...Yoshlar ma'naviy dunyosining milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g'oyat kuchli ta'sir ko'rsatadigan, ayni paytda o'zbek mumtoz adabiyoti va o'zbek milliy ma'naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo'lida ochqich - kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o'rganish orqali yoshlarda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish muhim masalalardan hisoblanadi". [9,3]

"Farhod va Shirin (nasriy bayoni)" — turkiy shoir Alisher Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin" dostonining G'afur G'ulom qalamiga mansub nasriy bayoni bo'lib, ilk bor 1940-yil chop etilgan. 1975-yil esa Abduqodir Hayitmetov tomonidan tahrir qilingan yangi versiyasi chop etilgan.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy "Hamsa"sining tarkibidagi dostoni bo'lgan asarlaridan biri bo'lmish "Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonining leksik-semantik va badiiy-stilistik jihatini tadqiq qilishni maqsad qilib qo'ydik. Ushbu asarda qahramonlar, joylar, va tabiat manzaralari tasviriyu tavsifini badiiy ifoda etishda tasvir vositalarning barcha shakllari mohirona qo'llangan. Dostonning nasriy bayoni matnida uchraydigan tasvir vositalarini statistik tahlil qilganimizda 500 dan ortiq ekanligini aniqladik, aksariyat hollarda metafora, o'xshatish, personifikatsiya qilish, mubolag'alar qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. Ma'lumki, troplar matnda ma'noni kuchli darajada ifodalab, badiiy asarning badiiy salohiyatini ko'tarishga hizmat qilishi bizga ma'lum. Biz dostonning leksik-semantik jihatdan tadqiq etishda, troplar ya'ni ko'chimlarning metafora, metonimiya va o'xshatish shakllarini tanlab olib, ularni asarda qay darajada ifoda etilganligi va tarjimalarda qayta tiklanishiga e'tiborimizni qaratdik.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Badiiy tasvir vositalari badiiy adabiyotda juda muhim o'rin tutadi. Ular asarning estetik qiymatini oshirish, o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatish va muallifning fikrlarini aniqroq va chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi:

1. Hissiy ta'simi kuchaytirish

Badiiy tasvir vositalari o'quvchining hissiyotlariga ta'sir qiluvchi kuchli vositalardir. Ular o'quvchini hikoya ichiga chuqurroq kirishiga, qahramonlarning his-tuyg'ularini his qilishiga yordam beradi.

2. Estetik zavqni oshirish

Badiiy adabiyotda estetik jihatlar juda muhimdir. Tasviriy vositalar asarning go'zalligini oshiradi, uni o'quvchi uchun yanada jozibador qiladi. Alliteratsiya, asonans va konsonans kabi vositalar she'riyatda musiqa va ritm yaratadi, bu esa asarni estetik jihatdan boy qiladi.

3. Ma'no va mazmuni boyitish

Metafora, simbolizm va personifikatsiya kabi vositalar yordamida muallif o'z fikrlarini yanada chuqurroq va boyroq ifodalaydi. Bu vositalar o'quvchiga oddiy so'zlar orqali etkazib bo'lmaydigan

TILSHUNOSLIK

murakkab g'oyalarni tushunishga yordam beradi. Masalan, simvolizm orqali muallif biror narsa yoki voqea orqali kengroq ijtimoiy yoki falsafiy ma'nolarni ifodalashi mumkin.

4. O'quvchining tasavvurini boyitish

Badiiy tasvir vositalari o'quvchining tasavvurini boyitadi, unga voqea joylarini, qahramonlarni va ularning tajribalarini jonli tasavvur qilish imkonini beradi. Bu vositalar yordamida o'quvchi asarda tasvirlangan dunyoni o'z ko'zlari bilan ko'rganday his qiladi. Personifikatsiya va tasviriy tafsilotlar bunda katta rol o'ynaydi.

5. Muallifning uslubini belgilash

Badiiy tasvir vositalari muallifning o'ziga xos uslubini yaratishga yordam beradi. Har bir muallifning o'ziga xos tasviriy vositalarni qo'llash uslubi bor va bu uslub o'quvchilar tomonidan tan olinadi. Masalan, ba'zi mualliflar ko'proq metaforalarni, boshqalari esa simvolik tasvirlarni afzal ko'rishini mumkin.

6. Kontekst va muhitni tasvirlash

Badiiy tasvir vositalari yordamida muallif kontekst va muhitni yanada aniqroq va jonli tasvirlaydi. Bu o'quvchiga asardagi voqealar rivojlanadigan joy va davrni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, tarixiy romanlarda muallif davr ruhini, muhitini va madaniyatini tasvirlash uchun tasviriy vositalardan keng foydalanadi.

Badiiy tasvir vositalari badiiy adabiyotning ajralmas qismidir va ularning to'g'ri va mahorat bilan qo'llanilishi asarning muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shadi. Bu vositalar nafaqat asarning go'zalligini oshiradi, balki uning mazmunini boyitadi va o'quvchining hissiy va intellektual tajribasini chuqurlashtiradi.

Tilshunosligimizda ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'zlar ko'chimlar, g'arb tilshunosligida esa troplar deb yuritiladi va ular badiiy matn yaratilishining asosini tashkil etadi. Metafora ko'hna davrlardan to hozirgi kungacha sharq va g'arb tilshunosligi hamda adabiyotshunosligida o'rganilib kelingan badiiy tasviriy vositalardan biridir. Ko'chimlarning boshqa shakllari metafora asosida yuzaga kelganligi hamda metaforaning asosan ikki turi farqlash lozimligi: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari mavjudligi fanda asoslangan. Bu ikki turdan biri lingvistik metafora asosan atash, nomlash vazifasini bajarib, hech qanday badiiy bo'yoqdorlik yoki emotsional ekspressivlikni ta'min etishini dostonida voqealar rivojida ko'rishimiz mumkin: "*Biroq qattiq shamol ko'tarilsa, dengizning ko'ksi ming chok bo'lib ketadi.*"[1,5]. Ushbu misolda "*qattiq shamol*" so'z birikmasida "*qattiq*" so'zi metafora – ramziy ma'noda qo'llanilgan, chunki "*qattiq*" so'zining asliyat ma'nolari bir nechta bo'lib, ulardan "*belgi-darajasi yuqori bo'lgan, kuchli*" degan ma'nosini ko'chirilgan. [5,46] Biz bilamizki, shamol natijasi seziladigan, ammo ushlab bo'lmaydigan tabiat hodisasidir. Ushbu "*Biroq qattiq shamol ko'tarilsa*" jumlasida esa shamolning kuchini tasvirlash uchun "*qattiq*" so'zi ishlatilgan. "*Qattiq*" so'zi hattoki ko'chim ekanligi ham hayolga kelmaydigan oddiy so'zga aylangan. Uning bir qarashda metafora ekanligini hechkim bilmaydi. Aslida esa, ko'chma ma'noda ishlatilib kelinadigan tasviriy vositadir. Jumlaning davomida "*dengizning ko'ksi ming chok bo'lib ketadi*" misrasi keladi. Ushbu misolni tahlilga tortsak, "*dengizning ko'ksi*" metaforaga, "*ming chok bo'lib ketadi*" mubolag'aga misol bo'la oladi. "*Ko'ksi*" – inson tana a'zosi (old ko'krak qismi, bag'r). Ma'lumki, inson tana a'zolari metafora sifatida ishlatilishi tilshunoslik manbalarida keltirilgan. Bundan kelib chiqadiki, tahlilimizdagi dengiz yuzasi – inson ko'ksiga qiyos qilinmoqda. "*Ming chok bo'lib ketadi*" jumlasini tadqiq qilganimizda, mubolag'a so'z san'atidan muallif mohirona qo'llaganini guvohi bo'ldik. Sababi, mubolag'a insonni tasavvurida mavjud, ammo real hayotda mavjud bo'lmagan ta'riflarni o'zida ifoda etadi. Dengizning ko'ksi kuchli shamol sababli ming chok bo'lishi o'quvchi tabiat hodisasining dengizga ta'siri darajasini tasavvurida gavdalantiradi. Ushbu ta'rifni oddiygina "*dengiz kuchli shamol tufayli to'liqinlanardi*" tarzida ifodalanganda badiiy ta'sir kuchi yo'qolib, kitobxon bunga e'tibor bermasdi. Muallifning maqsadi esa, har bir o'zi yozgan jumlasini o'z o'quvchisining ongu- shuurida qayta gavdalantirishdir. "*Chok*" so'zi tikuvchilikka xos so'z bo'lib, ikki matoni birlashtirib tikilgandagi qismini anglatuvchi termin hisoblanadi. Dengizga esa chokni aloqasi bo'lmasada, kuchli shamol ta'siridagi o'zgarishi – ming chokka qiyoslanmoqda.

Yana bir misol tahlilini ko'rsak: "*Ko'nglim qayg'u qushlarining xujumidan vayrona, malomat toshlari ko'ksimga yog'ilgani yog'ilgan.*"[1,10] Bu misolda keltirilgan "*qayg'u qushlari*" so'z birikmasida "*qushlar*" metafora bo'lib, Navoiy ijodida uchraydigan bir martalik okkazional

ko'chimidir. "Qush" asliy ma'noda "umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan, uchishga layoqatli sinfi: parranda" hisoblanadi. [5, 123] Biroq keltirilgan jumlada "qayg'u qushlari" - qayg'uni jonlantirish tasviri bilan bayon etilgan. Bu keltirilgan misolda asliy ma'nosini ramziy ma'noda qo'llanilgani tahlilimiz natijasida ma'lum bo'ldi. Demak, insonni iztirobga soluvchi his – qayg'u deb nomlansa, uning kelib ketish jihati qushga o'xshatilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu jumla davomida "qayg'u qushlarining xujumi" degan misraga duch kelamiz. Ushbu birikmadagi "xujum" so'zining ma'nosi "egallash, yo'q qilish, qaytarish va shu kabilar maqsadda harakat qilish, shunday maqsaddagi harakat, urinish; hamla"³⁰ bo'lib, jumlada qushlar harakatiga nisbatan olingan, ko'chma ma'noda esa g'am-qayg'uning ortishiga qiyos qilib tasvirlangan. "Kongilda g'am-qayg'ular ortdi" deb asliy ma'noda ifodalamasdan, badiiy-stilistik bo'yoqdorlikni ta'minlash maqsadida "ko'ngil qayg'u qushlarining xujumidan vayrona" kabi tasvirlanishi kitobxon tasavvurida gavdalanishiga xizmat qilgan. Bunday bir martalik okkazonal metaforalarni Navoiy ijodida ko'plab uchratishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, obrazli tildan foydalanish har bir badiiy asarga badiiy qiymatini oshiradi. Badiiy tasvir vositalari ustida olib borilgan barcha tadqiqotlar tildagi rivojlanishlarning tahlili bo'lib, badiiy matn lisoniy tahlil qilishimizda katta muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiyning "Xamsa"sining tarkibiy dostonlaridan bo'lmish "Farhod va Shirin" bo'lib, uni yaratishda buyuk ijodkor to'liq majoziy tildan foydalangan: metafora, giperbola, shaxslashtirish, o'xshatish kabilardan iborat. Ushbu badiiy tasviriy vositalar asarni kitobxon qalbi va xotirasida qolishiga katta xizmat ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" nasriy bayon muallifi G'ofur G'ulom.(1975) T.: "Adabiyot va san'at"
2. Boboniyozov A.A.Qodiriyning O'tkan kunlar romanida tasviriy vositalar.-Toshkent,1995.bet 122. (Boboniyozov A.A."Figures of the language in the work of A.Kodiri "the Days Passed by" Tashkent,1995. – Pages 122)
3. Black M. Metafora//Teoriya metafori. – M.:Progress,1990. - Bet 512. (Black M. Metaphori//Theory of Metaphorshe. – M.:Progress, 1990. - Pages 512)
4. Fazildinova, S. N. (2022). THE MATTERS OF TRANSLATING THE FIGURATIVE LANGUAGE DEVICES USED BY ALISHER NAVOI IN DESCRIPTION OF WORD, LANGUAGE AND SPEECH ETHICS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 106-118.
5. Madvaliev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent, 2006. – B.394.
6. Mirtojdiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Mumtoz so'z, Toshkent, 2010. – bet 288.(Mirtojdiyev M. Semasiology of Uzbek language. – Mumtoz suz, Tashkent, 2010. – Pages 288)
7. Lakoff, G. & M. Johnson (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago, The University of Chicago Press. – Pages 242.
8. I.Haqqul. "Navoiyga qaytish" – T.: Fan, 2007. – bet 33. (I.Hakkul. "Back to Navoi" – T., Fan, 2007. – Pages 33)
9. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh.: Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010. – Bet 165.(Yuldoshev M., Isakov Z., Haydarov Sh.: Linguistic analysis of literary text. – Toshkent, 2010. – Bet 165)
10. Sirojiddinov Sh. va boshqalar (2018) Navoiyshunoslik.(1-kitob).– T.:Tamaddun –520 b.

³⁰ <https://izoh.uz/word/hujum>